

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI  
MARKAZLARNI TASHKIL QILISH TEXNOLOGIYASI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilishning asosiy texnologiyalarini va ularning samarali ishlashini ta'minlovchi omillarni o'rganishga bag'ishlangan. Rivojlantiruvchi markazlar, asosan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishga turtki beradigan, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etishga imkon yaratadigan muhim ijtimoiy-iqtisodiy institutlardir. Maqolada rivojlantiruvchi markazlarning tashkil etilishi va ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan texnologik, moliyaviy, va ijtimoiy resurslar, shuningdek, ushbu markazlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda shu bilan birga, rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan metodologik yondashuvlar va boshqaruv texnologiyalari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Rivojlantiruvchi markazlar, tashkil qilish texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, innovatsiyalar, boshqaruv tizimi, markazlar faoliyati, resurslar, tarmoq tizimi, rivojlantirish strategiyasi.

**ТЕХНОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИВАЮЩИХ ЦЕНТРОВ В ДОШКОЛЬНЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению основных технологий организации центров разработки и факторов, обеспечивающих их эффективную работу. Центры развития являются важными социально-экономическими институтами, которые стимулируют экономическое, социальное и культурное развитие и позволяют внедрять инновационные подходы и технологии. В статье анализируются технологические, финансовые и социальные ресурсы, необходимые для организации центров развития и их успешной работы, а также роль этих центров в социально-экономическом развитии. При этом в исследовании рассматриваются методические подходы и технологии управления, необходимые для организации центров развития.

**Ключевые слова:** Центры развития, организационные технологии, социально-экономическое развитие, инновации, система управления, деятельность центров, ресурсы, сетевая система, стратегия развития.

**TECHNOLOGY FOR ORGANIZING DEVELOPMENT CENTERS IN PRESCHOOL  
EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

**Abstract.** This article is devoted to the study of the main technologies for organizing development centers and the factors ensuring their effective functioning. Development centers are important socio-economic institutions that primarily stimulate economic, social and cultural development, and allow the introduction of innovative approaches and technologies. The article analyzes the technological, financial and social resources necessary for the organization of development centers and their successful operation, as well as the role of these centers in socio-economic development. At the same time, the study also considers the methodological approaches and management technologies necessary for the organization of development centers.

**Keywords:** Development centers, organizational technologies, socio-economic development, innovations, management system, center activities, resources, network system, development strategy.

**Kirish.** Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida

rivojlanish markazlaridan foydalanish bilan pedagogik jarayonni tashkil etish masalasi o'ta dolzarbdir. Shunday ekan, tarbiyachi barcha yosh guruhlarida rivojlanish markazlarni loyihalar ekan, bolalarni maqsadli yo'naltirib, ularni kuzatish, kuzatuv asosida tahlillash va shaxsga yo'naltirilgan tamoyil asosida uni shakllantirishi talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish markazlarini loyihalash va metodik ta'minlash masalasi bugungi kunda, ayniqsa, dolzarbdir. Bu maktabgacha ta'limdagi Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standartini tasdiqlanishi bilan bog'liq.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standartiga muvofiq, dastur ta'lim sohalarini birlashtirish tamoyilini hisobga olgan holda va bolalarning yosh qobiliyatlari va xususiyatlariga muvofiq tuzilishi kerak. Ta'lim dasturiy vazifalarini hal qilish nafaqat kattalar va bolalarning birgalikdagi faoliyatida, balki bolalarning mustaqil faoliyatida ham, rejim paytlarida ham ta'minlanadi. Bugungi kunda bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashtirilmaslik kerak, aksincha maktabgacha ta'lim tashkiloti har bir bola uchun uning qobiliyati, imkoniyati, ruhiy va jismoniy holatlarini e'tiborga olgan holda zarur sharoitlarni yaratishga intilishi kerak. Har bir bola shaxsining betakrorligi va noyobligini hisobga olgan holda uning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash pedagoglarga ta'lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. [1].

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantirish markazlaridan foydalanish bilan pedagogik jarayonni tashkil etish masalasi o'ta dolzarbdir. Bu ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturini amalda qo'llash bilan bog'liq.

**Tahlil va natijalar.** MTT guruhlaridagi rivojlanish markazlari – bu pedagogik jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan estetik, psixologo-pedagogik shartlar majmudir.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerakasi bo'lib, o'quv muhiti oqilona tashkil etilgan, turli xil o'yin va o'quv materiallari bilan ta'minlangan rivojlantiruvchi muhit.

Tashkil etilgan rivojlanish markazda maktabgacha yoshdagi bola faol bilimga asoslangan ijodiy faoliyatga jalb qilinadi, uning qiziqishi, tasavvuri, aqliy va badiiy qobiliyatlari, muloqot malakasi rivojlanadi, eng muhimi – shaxsning uyg'un rivojlanishi amalga oshiriladi. [2].

Guruhdagi rivojlanish markazlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim bo'lib, jihozlangan rivojlanish markazlaridagi faoliyat bolalarning qiziqishlarini namoyon etish, atrof-olamni ixtiyoriy ravishda o'rganish, borliq-dunyoni ijodiy tasavvur etishga harakat qiladilar. Guruhdagi rivojlanish markazlari tarbiyachi uchun juda muhimdir:

-birinchidan, ular bolaning individualligini va maktabgacha bolaning mukammal rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda tarbiyachi uchun samarali yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi;

-ikkinchidan, ular bolalarni faol maqsadli va xilma-xil faoliyat turlarida ishtirok etishda keng imkoniyatlarni yaratishni ta'minlaydi;

-uchinchidan, rivojlanish markazlari tarbiyachiga bolalar faoliyatini tashkil qilish uchun maxsus joy sifatida xizmat qiladi va ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadi;

-to'rtinchidan rivojlanish markazlari tarbiyachi bilan ota-onalarning hamkorlikda ishlashi uchun imkoniyat yaratadi.

Pedagog vazifasi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarni ochish va ularni rivojlantirishga yordam berish uchun rivojlanish markazlari va ulardagi vositalari (jihoz, anjom, metodik yondashuv)dan foydalanishdir.

Shuning uchun ushbu davrda maktabgacha ta'lim tashkilotida ushbu markazlarni jihozlashga alohida e'tibor qaratiladi, unda bolaning ijodiy faoliyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi. [3].

Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning turli innovatsion, zamonaviy metodlari, shakllari va vositalaridan foydalanishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'g'ri tashkil etilgan va jihozlangan rivojlanish

markazlari quyidagilarni bajaradi:

ta'limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va rag'batlantiruvchi vazifalarni;

a) mavzuli rejalashtirish ta'lim-tarbiya faoliyatini olib borish jarayonida rivojlanish markazlari tarkibidagi barcha komponentlar (o'yinchoqlar, anjomlar, ta'limiy materiallar) o'zgaradi, yangilanadi va to'ldiriladi;

b) rivojlanish markazlari bolalarning kattalar bilan hamkorlikdagi (shuningdek, turli yoshdagi bolalar guruhi bo'lsa undagi bolalar) faoliyatlarida o'zaro muloqot qilish, bolalarning harakat faolligi, shuningdek, bolalarning bir-birlariga yordam berish imkoniyatlarini ta'minlaydi;

d) inklyuziv ta'limni tashkil etishda unga zaruriy shart-sharoitlar yaratish lozim;

e) ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda rivojlanish markazlari sharoitlarini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy talablari "Ilk qadam" Davlat dasturini amalga oshirish hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarini bajarishdir.

Rivojlanish markazlarida bir vaqtning o'zida faol muloqot va bilish-ijodiy faoliyatga tarbiyalanuvchilarni yakka tartibda, shuningdek, kichik (alohida) guruhlarda jalb etish mumkin. Rivojlanish markazlardagi yetakchi faoliyat – bu o'yin bo'lib, amaliyotchi pedagoglarning ushbu faoliyatni keng qo'llashda qiziqishlari ortib bormoqda.

#### *Pedagogik jarayonni rejalashtirish*

Mavzuli rejalashtirishga ko'ra har bir yosh guruhida oy va hafta mavzusi belgilanadi. Tarbiyachi oy mavzusini inobatga olgan holda guruhni jihozlaydi. Masalan: "G'aroyib olam", "Go'zal bahor", "Bu zamin barchamizniki" va boshqalar.

Bundan tashqari, oy mavzusini MTT binosiga kirish joyi, o'qish va guruhlarga kirish joylariga joylashtirish tavsiya qilinadi. Bu jihozlarni oson almashtiriladigan bo'lishi lozim.

Oy mavzulari ichidagi hafta mavzulari bo'yicha quyidagi rivojlanish markazlari ishi tashkil etiladi:

- ✓ Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi
- ✓ Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish
- ✓ Til va nutq markazi
- ✓ Fan va tabiat markazi
- ✓ San'at markazi

Tarbiyachi hafta uchun mo'ljallangan mavzu, maqsad va kutilayotgan natijalarni yaxshi bilishi kerak, chunki shu asosda har bir markazda olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning ishlanmasini yaratadi, kerakli jihoz va materiallarni tayyorlaydi, faoliyatning qadamma-qadam borishini ishlab chiqadi, shuningdek, e'tiborga molik jihatlarga tayyorlanadi.

Har bir rivojlanish markazining o'z maqsadi va yo'nalishiga ega, shuning uchun markazlardagi faoliyat qiziqarli bo'lishi, qo'yilgan maqsad va vazifalarni hal etishi, ta'limiy materiallar va o'yin anjomlari guruh bolalarining yoshiga mos, xavfsiz va ularda qiziqish paydo qilishi lozim.

Markazdagi vazifa va topshiriqlar bolalarga tushunarli bo'lishi kerak. Har bir markaz haftaning boshida tayyorlanadi va jihozlanadi.

Markaz ishi davomida tarbiyachi bolalar ishini kuzatadi, tavsiya etilgan materiallarning bolalar uchun qanchalik qiziqarli, tushunarli va osonligi hamda xavfsizligiga e'tibor qaratadi. Agar kerak bo'lsa, tarbiyachi ta'limiy materiallarni to'ldiradi yoki o'zgartiradi. Tarbiyachi markazdagi ishlarni diqqat bilan tahlil qiladi va guruhning barcha bolalari besh kun davomida har bir markazda bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari kimga bajarish oson, kimga qiyin bo'lganini kuzatadi. Kuzatuv natijalari asosida tarbiyachi bola va uning ota-onalari bilan yakka tartibda ishlashni rejalashtiradi.

Har hafta oxirida tarbiyachi bolalar faoliyatini tahlil qiladi, bolalar nimalarni bilib olganini, nimani bilishni hojlashlarini o'rganadi, xulosalaydi. Shu bilan birga materiallar qay darajada qiziqarli va savodli tayyorlanganligi, qo'yilgan maqsadga erishildimi yoki yo'qmiligi chuqur tahlil etiladi. Shundan so'ng keyingi haftaga tayyorgalik ko'riladi. [4].

Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to'g'ri tashkil etilgan ish har bir bolaga o'zi yoqtirgan faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga, o'z kuchi va qobiliyatini sinab ko'rishga, kattalar va

tengdoshlari bilan birgalikda faoliyat yuritishga, ularning his-tuyg'ulari va va xatti-harakatlarini tushunish va baholashga imkon beradi, aynan shular rivojlantiruvchi ta'lim negizini tashkil etadi.

Shuningdek, MTTlarda har qanday yosh guruhlar uchun rivojlanish markazlarini yaratishda ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning ishtirokchilari hamkorligining psixologik asoslarini, dizayn va ergonomikasini hisobga olish kerak.

Maktabgacha ta'lim tizimida «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturining ishlab chiqilishi, amaliyotga tadbiiq etilgani maktabgacha ta'lim sohasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari barcha yosh guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, bo'layotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyachi mashg'ulot uchun berilgan vaqtdan unumli foydalanishi, turli texnologiyalar, usul va metodlardan foydalanib turli mashg'ulotlarni o'tishi, tarbiyachi bu tajribalarni puxta o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababali ham tarbiyachi mashg'ulotlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar qilish va turli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsiyalardan foydalanib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish talab etiladi va tavsif beriladi.

**Xulosa.** Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilish texnologiyalari o'zaro bog'langan resurslar va boshqaruv tizimlarining uyg'un ishlashini talab qiladi. Bunday markazlarning muvaffaqiyatli faoliyati ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsiyalarni joriy etishga asoslanadi. Markazlarni tashkil qilishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va resurslarni samarali boshqarish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasini oshiradi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlanish markaz faoliyatlarida bolalarga quyidagilar o'rgatiladi - muammolarni eta olish; - ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish; - odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilishni. Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Azimov F.** Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilish: Nazariya va amaliyot. Toshkent: "Iqtisodiyot va tayyorgarlik" nashriyoti. 2020, 200 b.

2. **Tursunov M.** Innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanish: Rivojlantiruvchi markazlarning roli. Toshkent: "Ilm-fan" nashriyoti. 2019, 186 b.

3. **Xodjaev S.** Rivojlantirish va innovatsiyalarni boshqarish texnologiyalari: O'quv qo'llanma. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti. 2018 224 b.

4. **Abdullayeva N.** Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va rivojlantiruvchi markazlar: Tahlil va metodologiyalar. Tashkent: "O'zbekiston iqtisodiyot akademiyasi" nashriyoti. 2021.